

Xiaomi jahon smartfon bozorida Apple'ni ortda qoldirdi

Ma'lumotlarga ko'ra, birinchi o'rinni 19 foiz ulush bilan Samsung kompaniyasi egallagan. Shuningdek, yuqori beshlikka Vivo va Oppo kompaniyalari kirdi: ularning bozordagi ulushi 10 foizga teng bo'lgan.




2021 yilning ikkinchi choragida Xitoyning Xiaomi korporatsiyasi smartfonlar sotuvi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa chiqdi, deyiladi Canalys kompaniyasi hisobotida.

Hisobotda aytilishicha, jahon bozorida Xiaomi ulushi 17 foizni tashkil etgan. Korporatsiya Apple kompaniyasini uchinchi o'ringa tushirib yubordi: Amerika kompaniyasining bozordagi ulushi 14 foizga teng bo'lgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, birinchi o'rinni 19 foiz ulush bilan

Samsung kompaniyasi egallagan. Shuningdek, yuqori beshlikka Vivo va Oppo kompaniyalari kirdi: ularning bozordagi ulushi 10 foizga teng bo'lgan.



Tahlilchilarning ta'kidlashlaricha, o'tgan yili jahon smartfon bozorida yetakchilik Huawei qo'lida bo'lgan.